

TARJIMON INTERPRETATSIYASIDA POETIK OBRAZ VA EMOTSIONAL OHANGNING O‘ZGARISHI

(Shoir Omon Matjon va shoir Sh. Seytov she’rlarining inglizcha tarjimalari
misolida)

Gaylieva Ogulay Kurbanmuradovna

Filologiya fanlari doktori, professor

gaylieva.77@mail.ru

Xo‘jamurotov Ramil Ibrohimovich

Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

hozamuratovramil@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21824024>

Annotatsiya. Maqolada shoirlar O.Matjonning «Eshigingdan o‘taman...» va Sh. Seytovning «Anajan» she’rlari inglizcha tarjimalarida tarjimon interpretatsiyasining namoyon bo‘lishi qiyosiy tahlil qilindi. Birinchi tarjimada elegik-fatal ohangning kuchaytirilishi, ikkinchisida esa tabiat obrazlarining soddalashtirilishi va yashirin ma’noning eksplikatsiya qilinishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: individual interpretatsiya, poetik obraz, emotsional eksplikatsiya, refren, modulyatsiya, obraz almashinuvi, kompozitsion adekvatlik.

Badiiy tarjimada tarjimon asliyatdagi tayyor ma’noni boshqa tilga mexanik tarzda ko‘chiruvchi vositachi emas. U matnni o‘qiydi, uning obrazli tuzilishini anglaydi, yetakchi ma’no qatlamlarini tanlaydi va tarjima tili imkoniyatlari asosida yangi badiiy matn yaratadi. Shu sababli har qanday badiiy tarjima ma’lum darajada tarjimonning individual interpretatsiyasi hisoblanadi.

Individual interpretatsiya tarjimonning asliyatni qanday tushungani, qaysi ma’nolarni ustuvor deb bilgani va ularni qanday leksik, sintaktik hamda obrazli vositalar bilan qayta ifodalaganida namoyon bo‘ladi. Tarjimon metaforani saqlashi yoki uning ma’nosini ochishi, noaniqlikni qoldirishi yoxud aniqlashtirishi, qofiya uchun semantik o‘zgarishga yo‘l qo‘yishi mumkin.

Olim Umberto Eko tarjimini tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi «muzokara» sifatida talqin qiladi. Bunday jarayonda matnning barcha xususiyatlarini bir xil darajada saqlab bo‘lmaydi. Tarjimon asar uchun qaysi belgi yetakchi ekanini belgilab, ayrim yo‘qotishlarga yo‘l qo‘yadi va ularni boshqa vositalar orqali kompensatsiya qilishga harakat qiladi [1, 1-16-b.].

Tadqiqotning maqsadi shoirlar O.Matjonning «Eshigingdan o‘taman...» va Sh. Seytovning «Anajan» she’rlari inglizcha tarjimalarida individual interpretatsiyaning leksik, obrazli va kompozitsion ko‘rinishlarini aniqlashdan iborat. Tahlilda qiyosiy-tipologik, kontekstual, semantik-komponent va lingvopoetik usullardan foydalanildi.

Shoir O.Matjonning «Eshigingdan o‘taman...» she’rida eshik obrazi ayriliq, xotira, kutilmagan uchrashuv va hayot bilan o‘lim o‘rtasidagi chegarani birlashtiradi. Lirik subyekt fasllar almasha, yillar o‘tsa va umri poyoniga yetsa ham, sevgilisining eshigi oldidan o‘tishini takrorlaydi:

Kuz yoysa ham yo‘llarga xazon,

Qor ko‘msa ham borliqni butun.

Ko‘klam kelib, ursa ham xandon,

Eshigingdan o‘turman bir kun [3, 119-b.].

Inglizcha tarjimada:

Though on the roads dead leaves lie,

Though it snows all night and day,

Let awakened nature cry,
I'll pass by your door some day [3, 120-b.].

Asliyatladi «xazon» tarjimada dead leaves shaklida berilgan. «Xazon» kuzda sarg'ayib to'kilgan barglarni ifodalash bilan birga, zavol, qarish va vaqt o'tishining ramziy ma'nolarini ham anglatadi. Dead leaves predmetli manzarani ochadi, ammo «xazon»ning mavsumiy va madaniy semantikasini qisman toraytiradi.

Ayni paytda dead sifati barglarni o'lim semantikasi bilan bog'laydi. Tarjimon xazonni oddiy kuzgi barg emas, hayotdan uzilgan «o'lik barg» sifatida talqin qilgan. Bu leksik eksplikatsiya she'r yakunidagi o'lim motivini dastlabki banddanoq kuchaytiradi. Demak, tarjimon she'rning yakuniy mazmunidan kelib chiqib, birinchi bandga retrospektiv fatal ma'no yuklagan.

«Qor ko'msa ham borliqni butun» misrasida qor butun borliqni qoplovchi makoniy va ontologik kuch sifatida tasvirlanadi. Tarjimadagi Though it snows all night and day variantida makoniy qamrov vaqt davomiyligiga aylangan: butun borliqni qor ko'mishi - kecha-kunduz qor yog'ishi.

Asosiy qish manzarasi saqlangan, ammo «borliq» obrazining keng falsafiy mazmuni yo'qolgan. Bu nuqtayi nazarining makondan vaqtga ko'chishi - modulyatsiyadir.

Jiddiy emotsional o'zgarish «Ko'klam kelib, ursa ham xandon» misrasida kuzatiladi. «Xandon» - kulib turgan, shod va ochilib-yashnagan holatni bildiradi. Inglizcha tarjimada esa mazkur obraz Let awakened nature cry shaklida berilgan. Natijada: bahor kulgisi - uyg'ongan tabiat yig'isi transformatsiyasi yuzaga kelgan.

Ehtimol, tarjimon cry-lie qofiyasini hosil qilish yoki she'rning umumiy mahzun ohangini kuchaytirish maqsadida cry fe'lini tanlagan. Biroq bunday tanlov asliyatladi «xazon - qor - xandon ko'klam» antitezasini yo'qotgan. Muallif tasvirida fasllar va kayfiyatlar o'zgaradi, lekin lirik subyektning qarori barqaror qoladi. Tarjimada esa barcha fasllar bir xil g'amgin ohangga bo'ysundirilgan. Shu sababli mazkur o'zgarishni emotsional fatallashtirish bilan birga, aksiologik deformatsiya deb baholash mumkin.

She'rning har bir bandi oxiridagi: «Eshigingdan o'turman bir kun» refreni inglizcha tarjimada:

I'll pass by your door some day

tarzida barqaror saqlangan. Bu yechim tarjimonning asar kompozitsiyasini to'g'ri anglaganini ko'rsatadi.

Eshik obrazi banddan bandga o'z ma'nosini kengaytiradi. Dastlab u sevgili yashaydigan uy eshigi bo'lsa, keyin keksaygan insonlarni ajratib turgan chegaraga, so'ng xotira va unutish oralig'iga, yakunda esa hayot bilan o'lim o'rtasidagi ramziy nuqtaga aylanadi. Refrenning aynan takrorlanishi mazkur semantik evolyutsiyani tarjima matnida ham saqlagan. Bu kompozitsion adekvatlikning muvaffaqiyatli namunasidir.

She'rning to'rtinchi bandida:

Meni demay yumsang ham ko'zing,

Xonang qolsa zulmatga tutqun.

Xotirangga sham bo'lib o'zim,

Eshigingdan o'turman bir kun [3, 119-b.],

deyiladi.

Inglizcha tarjimada:

If you die not crowning me,

And murk makes your room decay,

Lightening your memory,

I'll pass by your door some day [3, 120-b.].

«Meni demay yumsang ham ko'zing» misrasi «meni yodga olmasdan yoki nomimni aytmasdan ko'zingni yumsang ham» ma'nosini anglatadi. «Ko'z yummoq» uxlash va vafot etish ma'nolari chegarasida turgan evfemistik ifodadir. Tarjimada If you die not crowning me deyilishi bilan noaniqlik bartaraf qilinib, o'lim ma'nosi qat'iylashgan. Bundan tashqari, crowning me - «meni ulug'lamasdan» mazmuni asliyatda mavjud emas.

Natijada: meni yod etmay ko'z yummoq - meni ulug'lamay o'lish o'zgarishi yuzaga kelgan. Bu tarjimonning lirik subyekt xotirada qolish istagini balandparvozroq metafora bilan qayta qurganini ko'rsatadi.

«Xonang qolsa zulmatga tutqun» misrasida zulmat xonani asir olgan kuch sifatida jonlantiriladi. Tarjimadagi murk makes your room decay variantida zulmatning xonani qamab qo'yishi uni yemirish jarayoniga aylangan: zulmatga tutqunlik - zulmat sababli yemirilish.

Murk qorong'ilik ma'nosini saqlaydi, decay esa vaqt, vayronalik va o'lim semalarini qo'shadi. Tarjimon makon obrazini gotik vayronalikka yaqinlashtirib, fatal ohangni yanada kuchaytirgan.

«Xotirangga sham bo'lib o'zim» misrasida lirik subyekt o'zini xotirani yoritib turadigan sham sifatida tasavvur qiladi. Sham yorug'lik, xotira, fidoyilik va kuyib tugash semalarini birlashtiradi. Tarjimada Lightening your memory deyilishi bilan sham predmeti tushirib qoldirilib, uning faqat yoritish vazifasi saqlangan. Bu funksional modulyatsiyadir. Ammo shamning fidoyilik va kuyish semantikasi yo'qolgan.

Shoir Sh.Seytovning «Anajan» she'rida osmon, ko'chuvchi g'ozlar, yoshlik va fasllar ona taqdiri bilan bog'lanadi:

Bir qara aspanğa, qara, anajan,
Ġazlar qaytıp ellerge ketip baratır,
Bizge xoshlasıp aytıp baratır,
Bir qara aspanğa, qara, anajan [4, 12-b.].

Inglizcha tarjimada:

Look at the sky, my dear mother,
Ducks are returning to other lands,
They are saying goodbye to us,
Just have a look at the heavens [4, 12-b.].

«Bir qara aspanğa, qara, anajan» misrasida «qara» fe'lining takrori iltimos va hayrat ohangini kuchaytiradi. Tarjimada Look at the sky, my dear mother shakli orqali murojaat mazmuni asosan saqlangan.

Biroq band oxiridagi ayni shu misra Just have a look at the heavens tarzida o'zgartirilgan. «Aspan» birinchi misrada sky, oxirgi misrada heavens bilan berilgan. Sinonimik qayta nomlash inglizcha matnda bir xil so'z takroridan qochishga xizmat qilgan. Lekin asliyatdagi aynan takror bandni halqasimon kompozitsiyaga keltiradi. Sky-heavens variatsiyasi leksik xilma-xillik yaratsada, refrenning kompozitsion vazifasini susaytiradi.

Asliyatdagi «ġazlar» tarjimada ducks - «o'rdaklar» shaklida berilgan. G'oz va o'rdak suv qushlari bo'lsa ham, ularning poetik semantikasi bir xil emas. G'oz osmonda tizilib uchishi, uzoq masofaga ko'chishi va fasllar almashinuvining xabarchisi sifatida xalq she'riyatida barqaror obrazdir. O'rdak esa ko'proq suv muhiti bilan bog'lanadi. Shuning uchun ducks denotativ jihatdan qush obrazini saqlasa-da, g'ozning ko'chish, karvon va ayriliq semantikasini zaiflashtirgan.

Muqobil variantda:

The geese are returning to their distant lands

shakli obrazning predmetli va ramziy aniqligini yaxshiroq saqlaydi.

«Bizge xoshlasip aytip baratir» misrasi They are saying goodbye to us tarzida berilgan. G'ozlarning inson bilan xayrlashishiga asoslangan jonlantirish inglizcha matnda ham saqlangan. Bu yechim tarjimon tabiat manzarasi bilan lirik kechinma o'rtasidagi psixologik parallelizmni anglaganini ko'rsatadi.

She'rning keyingi qismida onaning yoshligi bahorga qiyoslanadi. Inglizcha tarjimada:

Youth is pleasant...

Juvenility is beautiful like spring...

mazmunidagi misralar keltiriladi. Yoshlik bir o'rinda youth, keyingi misrada juvenility bilan berilgan. Youth poetik va tabiiy so'z bo'lsa, juvenility ilmiy yoki salbiy uslubiy ma'no kasb etishi mumkin. U «yoshlarga xos yetuk bo'lmagan xulq»ni ham anglatadi. Demak, tarjimon leksik takrordan qochish maqsadida sinonim tanlagan, ammo so'zning uslubiy registrini yetarlicha hisobga olmagan.

Asliyatdagi «qizlik davri»ni berishda maid time ifodasi qo'llangan. Bu ingliz tilida tabiiy birikma emas. Tarjimon milliy-ijtimoiy tushunchani so'zma-so'z qayta qurishga uringan: qizlik vaqti - maid + time.

Uning tabiiyroq muqobillari your girlhood, your maiden years yoki the days when you were a young maiden bo'lishi mumkin.

She'rda har yili qaytib keladigan va yana uchib ketadigan qushlar ona umrining o'tishini ko'rsatuvchi tabiiy taqvim vazifasini bajaradi. Tarjimadagi Your face is getting pale year after year ifodasi onaning qarib borayotganini ochiq bayon qiladi. Agar asliyatda bu ma'no fasllar va ko'chuvchi qushlar orqali bilvosita ifodalangan bo'lsa, tarjimada yashirin ma'no eksplikatsiya qilingan:

tabiat orqali anglatilgan qarish - yuzning oqarishi haqidagi ochiq xabar.

Mazkur usul mazmunni tez anglash imkonini beradi, ammo obrazning poetik nozikligini qisman kamaytiradi.

Umuman olganda, shoirlar Omon Matjon va Sh. Seytov she'rlarining inglizcha tarjimalari tarjimon individual interpretatsiyasining ikki turli yo'nalishini namoyon qiladi.

Shoir Omon Matjon she'ri tarjimasida ayriliq, zulmat va o'lim motivlari kuchaytirilgan. «Xazon» o'lik barglarga, «xandon ko'klam» yig'layotgan tabiatga, «ko'z yummoq» esa aniq o'limga aylangan. Natijada asliyatdagi fasllar kontrasti bir xil elegik-fatal ohangga bo'ysundirilgan. Tarjimaning asosiy yutug'i «Eshigingdan o'turman bir kun» refrenining barqaror saqlangani va eshik obrazining kompozitsion evolyutsiyasi qayta yaratilganidir.

Shoir Sh.Seytov she'ri tarjimasida esa tabiat va vaqt obrazlarini soddalashtirish hamda yashirin ma'nolarni ochiq ifodalash tendensiyasi ustuvor. G'ozning o'rdak bilan almashtirilishi predmetli va folkloriy aniqlikni buzgan. Sky-heavens variatsiyasi leksik xilma-xillik yaratsa-da, refrenning aynanligini susaytirgan. Ona qarishining ochiq ifodalanishi esa matnni asliyatga nisbatan izohliroq qilgan.

Demak, birinchi tarjimada emotsional-fatalashtiruvchi, ikkinchisida esa izohlovchi va soddalashtiruvchi interpretatsiya ustuvor. Ijodiy talqin obraz shaklini o'zgartirgan holda uning vazifasini saqlashi mumkin. Agar tarjima obrazning tayanch ma'nosi yoki muallif bahosini asossiz o'zgartirsa, individual interpretatsiya badiiy deformatsiyaga aylanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Eco U. *Mouse or Rat? Translation as Negotiation*. - London: Weidenfeld & Nicolson, 2003. - 200 p. - P. 1-16.
2. Султонова Д.А., Ҳалимова Ф.Р. *Шеър ва таржима: ўқув-услубий қўлланма*. - Самарқанд: СамДЧТИ, 2009. - «Матжон Омон. Эпигингдан ўтаман... / I'll Pass by Your Door Some Day». - Б. 119-120.
3. Қарақалпақ адабияты. 2024 жыл. № 7-8. Сентябрь Сейтов Ш. «Анажан» / Mother. Аслият ва инглизча таржима газетанинг «Жаңа аўдармалардан / New Translations» саҳифаси. Таржимон Гулнур Азбергенова.